

SAMANDAR VOHIDOV ARUZIY SHE'RLARIDA USTOZ VA ZAMONDOSH SHOIRLAR MADHI

Narziyeva Saodat Dilmurod qizi

Samarqand davlat unversiteti mustaqil izlanuvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: aruz ilmi, qofiya ilmi, ramali musammani maqsur, bagʻishlov, gʻazal, qasida, muxammas, masnaviy, mumtoz poetika.

Annotatsiya

Maqolada oʻzbek mumtoz adabiyotdagi aruzning zamonaviy talqinlari, S.Vohidovning oʻzidan oldingi va zamondosh shoirlarga bagʻishlangan sheʼrlari tahlil qilinadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida mustaqillik bergan ulkan siyosiy oʻzgarishlar taʼsiri oʻlaroq koʻplab sheʼrlar yaratildi. Ularning mavzu koʻlami, mafkuraning taʼsiri, badiiy saviyasi masalasida ham turfa xillik koʻzga tashlandi. Shaklan barmoq vazniga asoslangan sheʼrlarda yangi zamoni, yangi zamon kishisining oʻy hayollarini, ichki kechinmalari (baʼzan ijtimoiylik kasb etgan kechinmalari) kuylangan boʻlsa, mumtoz sheʼriyatning uzoq yillik tajribasi boʻlgan aruzda diniy falsafiy qarashlar asosida sheʼriyatning goʻzal namunalari dunyoga keldi. Zamonaviy sheʼriyatda mumtoz adabiyotining maʼlum janrlari, asosan: gʻazal, qasida, qitʼa, tuyuq, ruboiy, muxammas, musaddas, masnaviy, taʼrix; taʼrixiy qitʼa, mufradot, sakkizlik va boshqa adabiy tur va janrlar rivojlandi. Bu davrda ijtimoiy hayotda roʻy berayotgan evrilishlar Toshpoʻlat Ahmad, Samandar Vohidov, Sadridin Salim Buxoriy, Tilak Joʻra, Said Ravshan, Muzaffar Tursunov, Abduvali Qutbiddin, Amir Xudoyberdi, Halima Ahmedova, Rahimjon Rahmat, Zebo Mirzayeva kabi shoir va shoirlar ijodida oʻz aksini topdi. XXI asr oʻzbek sheʼriyati haqida adabiyotshunos N.Rahimjonov fikr bildirar ekan “Ramzlar, tahayullar asosiga qurilgan asarlar, tuygʻu-kechinmalar tahlildan iborat monolog tipidagi sheʼrlar, milliy gʻurur falsafasini namoyon etayotgan, hikmatga yoʻgʻrilgan publisistik asarlar, folklorning lirik va epik anʼanalarini davom ettirayotgan, uning mundarijasini ahloqiy masalalar talqini bilan boyitayotgan ikkiliklar, uchliklar, sakkizliklar va baxshiyonalar adabiy jarayonda janr va uslub jihatidan orginal izlanishlar kechayotganligidan dalolat beradi”¹ - deydi.

Sheʼriyatda uslub masalasi haqida adabiyotshunos U.Hamdani “Xalqona ifoda, xalqona yoʻl bir qarashda juda osondek. Aslidachi? Aslida bu yoʻlda elga manzur qiladigan toʻrt qator sheʼr yozish uchun shoirning ruhi koʻpning ruhiga – umumruhga gʻarq boʻlgan yoki unga hamohang boʻlmogʻi shart”² – degan edi. Ming yilliklar davomida dunyo yuzini koʻrgan yaratilgan qolaversa, hozirgi kun oʻzbek sheʼriyatida sheʼrlarning nozik qirralarini tadqiq qilish bugungi kun oʻzbek adabiyotshunosligining oldida turgan muhim masalalardan biridir. Hozirgi kun sheʼriyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy gʻoyani ochib berish, undagi yetakchi gʻoyaviy – badiiy tamoyillarini

¹ Rahimjonov N. Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati T. Fan . 2007 194-b

² Hamdani U. Yangilanish ehtiyoji // T.; “Fan”, 2007. 16-b

aniqlash, o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilash imkonini beradi.

Yaratilgan badiiy jihatdan tahlil qilish jarayonida o'zbek poeziyasida aruzning ahamiyati beqiyos bo'ladi. "Biron shoir ijodi o'rganilar ekan, u yaratgan she'riyatning vazn xususiyatlarini tadqiq etish badiiy mahorat, uslub, an'ana va novatorlik kabi masalalarni hal etish jihatidan alohida ahamiyatga ega"³. Zamonaviy o'zbek poeziyasi haqida adabiyotshunos Ibrohim G'afurov shunday degan edi: "Keyingi yigirma yil ichida she'riyatning mundarijasida Vatan, istiqloq, ma'naviyat bosh o'rinni egalladi. Turlicha talant, turlicha adabiy tajriba, turlicha yoshdagi ijodkorlar yangi ijtimoiy voqelik va mustaqillikning real amalga oshayotgan g'oyalari ta'sirida yig'ilgan yurtning inson hayotidagi ma'no mazmunini o'zlari uchun qaytadan kashf qilish yo'liga kirdilar"⁴. Bu davrda Behzod Fazliddin, Mahmudjon Nurmatorov, Salim Ashur, Ismoil Mahmud Marg'iloniy, Chorsham, Oshiq Erkin (Navoiy g'azallariga muxammaslar bog'lagan), Jo'ra Maxzuniy kabi shoirlar ijodida mumtoz she'riyatning turli jilolarini ko'ramiz. Ushbu adiblar qatorida adabiyotshunoslikdagi "Ilmi bade"⁵ning zarur qonun qoidalariga tayangan holda shoir S.Vohidovning poetik olamini anglash va baholashda adabiy ta'sir va o'ziga xosliklarni, she'rlarning mavzular olami va janriy xususiyatlarini, ijodkor uslubi va badiiy mahoratini atroflicha o'rganish shoirning badiiy pafosini belgilashdan dalolat beradi. Shoir tasavvufiy nuqtai- nazardan puxta, pishiq, o'zbek tilida ham tiniq aniq va ravon mukammal yaratilgan aruziy she'rlarini aniqlash shoir ijodini o'rganishdagi qadamlardan biri bo'lsa, bu she'rlarni badiiy tahlilga tortish ularni faqatgina ilmiy doiralarda emas keng jamoatchilikka yetib borishligiga dasturi amal bo'ladi. Shoir poeziyada poetik uslublardan foydalangani, ularga nisbat berganligi, baytlarda tasavvufiy qarashlarni badiiy asar shaklining mazmuniga singdirganligi, zamonaviy o'zbek she'riyatiga mumtoz she'riyat namunalari bilan hissa qo'shaolgan shoir sifatida kamolga yetgani, zamondosh shoirlarining badiiy ijod na'munalariga alohida ehtirom ko'rsatganligi, mumtoz poetikaning barcha unsurlarini mukammal bilganligi nazmiy parchalarda she'riy san'at turlaridan mohirona foydalanganligi shoir dahosining naqadar ulug'ligidan dalolat beradi. Mumtoz adabiyotda zullisonaynlik an'anaga aylangan bo'lib, S.Vohidov ham she'rlarini fors, tojik tillaridan o'zbek tiliga tarjima qildi. Dastlab barmoq vaznida samarali ijod qilgan S.Vohidov aruzda ham mukammal ohanglar yarata olgan. Shoir ijodida mavzu ko'lamining turfaqligi, tarixiy an'analarga sobitlik, obrazlar va qiyoslarning nafisligini ko'rsak, shakiliy jihatdan esa bayt boshidan oxiriga qadar vazn, bahr va juzvlarning teng va munosib miqdorda ekanligini ko'ramiz. Aruzning nozik jilolari haqida professor A.Hojiahmedov fikr bildirar ekan: "Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lmoq, har bir ijodkor qalamining badiiy salohiyatini anglab yetmoq, she'rlarga xos nafis ohanglarni ham, so'z san'atining betakror nazokatu latofatini ham his etmoq uchun ushbu bezavol obidalarga asos bo'lgan aruz she'riy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidalari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor bo'lmoq talab etiladi"⁵ deydi. Aruzning zarur qonun qoidalari bilan yo'g'rilgan she'rlarning mavzu ko'lami rang barangligi bilan ajralib turadigan shoir Samandar Vohidovning nodir yaratilari o'zbek she'riyatida o'z o'rniga ega. Shoirning "Gullayotgan kunlar" she'riy to'plamidan joy olgan she'rlarda ustozlarga hurmat, zamondosh shoirlar ijodiga bo'lgan izzat ehtiromning yorqin na'munasiga guvoh bo'lamiz.

Shun-da-yi nsho-i-ri bor el-/ning ne-chuk ar-/mo-ni bor,

- - v - - / - v - - / - v - - / - v -

Shun-da-yi nsho-i-ri xalq-ning bo-shi bo'l-may-di ham. []

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

Aruzning **ramali musammani maqsur** bahrida yozilgan ushbu g'azal Jamol Kamolga bag'ishlangan. Shoir yetmish yoshning yuz yosh tomon tashlangan yetti qadam deya ta'riflar ekan:

³ Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari T. Akademnashr. 2018 5-b

⁴ Ibrohim G'afurov O'zgarayotgan dunyoda she'r so'zi(2010-yil she'riyatiga nazar) Sharq yulduzi jurnali 2011/5 98-bet

⁵ O'zbek aruzi lug'ati . A.Hojiahmedov Sharq nashriyoti Toshkent-1998 3-bet

Har qa-dam-ki /cho‘l-ga tush-sa /gul u-nar xor/ o‘r-ni-da

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

Har ka-lom-ki / dil-ga tush-sa/ meh-ri-dan bit-/ mish ra-qam.

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

misralarni keltiradi. Muallifning ta‘rificha ustoz cho‘lga qadam qo‘ysa xor⁶ o‘rnida gul paydo bo‘lishini har so‘zi dilga tushsa o‘sha mehrdan yangi mehrli qalblar ko‘payaverishligini, lirik qahramonning ko‘nglida zarracha ham g‘ubor yo‘qligi sabab Mavlono Rumiylar ruhidan karam topganligini ta‘kidlaydi. Shoir zamondosh shoirlar ijodiga ham befarq emasligini Omon Muxtorga bag‘ishlab yozilgan “Shunqori bor” she‘rida ifodalaydi.

Har a-dib-kim e-lu yurt-ning dar-di-dan guf-to-ri bor,

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

Ko‘ng-li-da qad-rin ba-land et-guv-chi Ol-loh – yo-ri bor

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

Shoirning aksariyat aruziy she‘rlari kabi ushbu she‘ri ham *ramali musammani maqsur* bahrida yozilgan. Muallif qalamkashlar ahlining qalbi xalq qalbi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganda, xalqning mazmunan “Safda noring bo‘lsa yuqing yerda qolmaydi” maqolini keltirish orqali qalamkashlarga she‘riyat dunyosida o‘z aytar so‘zing bilan xalq ko‘nglidan joy olgan bo‘lsang, demak sening noming ham dillarda doston bo‘lgay deya o‘git beradi. She‘rning keyingi misralariga nazar solar ekanmiz kimki Haq desa haq so‘zni ko‘nglida mudom rahnamo deb bilsa, xalq olqishiga sazovor bo‘lishligini, shunday “fozil farzanddan” qismat (taqdir) Buxoroni ham qismaganini (ayamaganini) aytadi. Muallif shoirning bu qadar obro‘sharaf topganini ikkinchi bayt mazmunida yanada ochiqroq bayon etadi.

Hatto Aflotun* bilan suhbat qurar farzandlari, Kim deyur ahli qalam yo‘lida davr devori bor?

Darhaqiqat shoir ta‘riflagandek mahoratli ijodkor uchun, u tasvirlayotgan muhitni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada ishonarli va xalqchil ro‘y berishi uchun “davr devori” hech qanday ahamiyatga ega emas. Adabiyotshunos A.To‘ychiyev aytganidek: “agar tarixchini, asosan, muhim tarixiy voqeaning mohiyati, mazmuni qiziqtirsa, ijodkor har bir kichik detalning haqqoniyligi borasida ham ko‘p tashvish chekadi.”⁷

Keyingi baytda lirik qahramonni Fitrat ruhining shod bo‘lganini, u yetmoqni niyat qilgan samoni zabt eta bilgan shunqorga o‘xshatadi. Shoir serqirra ijodkorning ham nasr ham nazmda benazr ekanligini qolaversa, mohir tarjimon va muharrir sifatida tariflaydi:

Qo‘lidan tushgan qalam izdoshida topdi murod, Neki yozsa, pirlari gulzorining ifori bor.

She‘rning so‘nggi misrasida yozuvchining Alisher Navoiydek ulug‘shoir haqidagi romanlari uchun Davlat mukofotiga loyiq ko‘rilganini iftixor bilan tilga olib

Bu sharaf Shahri Sharaf shoniga – shon qo‘shsa ne tong, Mir Alisherdan sharaf topgan Omon Muxtori bor deb yakunlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shorning “Bo‘lma bemaqsadki...”, “Bag‘ri keng bo‘l jahonday”, “Qilma ta‘na”, “Bo‘lmayin beburd, desang” kabi didaktik ruhdagi g‘azallarida insonning hayotga, kelajakka ishonch bilan yashashning falsafiy g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, “Gullayotgan kunlar” she‘riy to‘plamiga kirgan “Yuz sari yetmish qadam”, “Ijodning g‘ulomi murodning shohi”, “Niyat bog‘ida gul tergay”, “Shunqori bor”, “Ilm amal birla biriksa”, “Kim qalamga qo‘ysa mehr”, “Tomirida

⁶ Xor- tikan, tikanak. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy entiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.413-bet

⁷ Tarixiy badiiyatda makon va zamon A.To‘ychiyev “Sharq yulduzi”, 2012–5 154-bet

Zarafshonning tug‘yoni”, “Gumburlab yashagin, Baxshulla ukam” kabi bag‘ishlovlarida ijod ummoni vakillariga samimiy ehtiromning na‘munalarini ko‘ramiz. Ustoz shoirlar ijodidan ilhomlanish, zamondosh shoirlar ijodiga hurmat kabi fazilatlar S. Vohidovning uzoq yillik hayotiy tajribasi o‘laroq dunyo yuzini ko‘rgan she‘rlarining badiiy saviyasini oshirgan, unga o‘ziga xos joziba baxsh etib, she‘riyat ixlosmandlariga yetib borgan.

Adabiyotlar /Литература/References

1. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji // T.; “Fan”, 2007. 16-b
2. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari//T.: “Akademnashr”, 2018. 5-b.
3. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati // T.; Sharq .1998 3-b
4. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati// T.: “Fan”, 2007. 194-b
5. To‘ychiyev A. Tarixiy badiiyatda makon va zamon “*Sharq yulduzi*”, 2012–5 154-b
6. Vohidov S. Dunyo kami bitmagay. Saylanma IV. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2014.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy entiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.413-bet
8. G‘afurov I. O‘zgarayotgan dunyoda she‘r so‘zi(2010-yil she‘riyatiga nazar) Sharq yulduzi, 2011/5-son 98-b.